



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
SUV XO‘JALIGI OBYEKTлари XAVFSIZLIGINI VA SUVDAN  
FOYDALANISHNI NAZORAT QILISH  
INSPEKSIYASI  
BUYRUQ

2024-yil “1” aprel

Toshkent sh.

21 sonli

**“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi  
sohasida komplayens nazorat  
menejmenti tizimlarini tashkil  
etish to‘g‘risida**

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida ochiqlik, adolatlilik, tenglik, qonun ustuvorligi, shuningdek, xodimlarning odob-axloq va jamiyatda yurish-turish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatlarini shakllantirish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan va 3319-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizom **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida ochiqlik, adolatlilik, tenglik, qonun ustuvorligi, shuningdek, xodimlarning odob-axloq va jamiyatda yurish-turish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatlarini shakllantirish bilan bog‘liq hujjatlar quyidagi tartibda tasdiqlansin:

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom 1-ilovaga muvofiq;

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosati 2-ilovaga muvofiq;

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti 3-ilovaga muvofiq;

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnama 4-ilovaga muvofiq;

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnama 5-ilovaga muvofiq;

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnama 6-ilovaga muvofiq;

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom 7-ilovaga muvofiq;

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti 8-ilovaga muvofiq;

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti 9-ilovaga muvofiq;

“Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi va tizim tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamenti 10-ilovaga muvofiq;

komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas‘ul xodimning lavozim yo‘riqnomasi tasdiqlansin.

3. Yuridik xizmat va ma‘muriy amaliyot bo‘yicha bosh mutaxassis **har chorak yakuni bo‘yicha** Inspeksiya markaziy apparati, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari rahbar-xodimlari ishtirokida korrupsiyaviy omillar hamda odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlari yuzasidan rahbariyat muhokamasiga axborot kiritilishni ta‘minlasin.

4. Inspeksiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari boshliqlariga:

mazkur buyruqdan kelib chiqib **10 kun muddatda** ichki idoraviy hujjatlarini tasdiqlash;

Inspeksiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va xodimlarning odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ustidan shaxsan nazorat olib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish Inspeksiya boshlig‘i o‘rinbosari Z.Irisboev zimmasiga yuklatilsin.

*Asos: O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan va 3319-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizom.*

**Boshliq**



**R. Raximov**